

OILAVIY AJRIM SABABLARI, MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMI

Adizova Kupiya Ramazonovna

Buxoro viloyati Shofirkon tuman Sultonobod M.F.Y. otinoyisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada oilaviy ajrimlarning sabablari, uning farzandlarga ta'siri haqida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: nikoh, ajrimlar, oilaviy ziddiyatlar, Oila qadriyatlarini mustahkamlash komissiyasi.

Kirish. O'rta Osiyoda oila jamiyatning asosiy negizi, uning mustahkam poydevori hisoblanadi. Oilaning muqaddasligini, farovonligini ta'minlashda, birinchi navbatda, ayolning o'rni beqiyos.

Shu o'rinda Prezidentimizning "Oila hayotning abadiyligi, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan muqaddas urf-odatlarini saqlaydigan, shu bilan birga, kelajak nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor", "Ayol baxtli bo'lsa, oila tinch, jamiyat esa barqaror bo'ladi[1]", degan serma'no so'zlarini hayotga tatbiq qilish zarurligi davr talabi bo'lib qolmoqda.

Mustahkam oilalardan tashkil topgan mamlakat, albatta, qudratli bo'ladi.

Oila ota, ona va farzanddan iborat uchta tiringakka quriladi. Oilaning baxt-saodati ham, uning kamoli va farovonligi ham, tinchligi va osoyishtaligi ham ana shu uch ustunning bir-biriga munosabatiga, ahilligiga, yaxshi tarbiyasiga bog'liq. Bular bo'lmas ekan, oila tanazzulga yuz tutaveradi. Bu inqiroz esa, o'z navbatida, jamiyatni larzaga keltiraveradi[2].

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 14-bobi "Oila, bolalar va yoshlar" deb nomlangan bo'lib, 76-moddasida "Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligiga va teng huquqliligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlarni yaratadi", deb alohida ta'kidlangan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 2-moddasida "Oilaviy munosabatlarda ayol va erkak teng huquqli deb belgilab qo'yilgan. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi[3]", deb ko'rsatib o'tilgan.

Asosiy qism. O‘zaro ishonch va muhabbat asosida qurilgan oila, albatta, mustahkam bo‘ladi. Oiladagi ma’naviy sog‘lom muhitni yaratish ham ota, ham onaga bog‘liq. Ba‘zan jahl ustida ota-onaning nomaqbul harakati o‘rtadagi ishonchning yo‘qolishiga, muhabbatning esa tanazzulga yuz tutishiga sabab bo‘ladi. Ushbu holat esa ota-ona va farzandlar o‘rtasida oqibatsizlik, o‘z hayotidan, jamiyatdan norozilik, oilada notinchlik, hech narsaga qiziqmaslik, beparvolik, loqaydlik, jahldorlik holatlarini keltirib chiqaradi. Bu esa oilaning inqiroziga sabab bo‘ladi. Bunday nosog‘lom muhitda dunyoga kelib, tarbiyalangan bolalarda xiyonatga, turli axloqsiz xatti-harakatlarga (ichish, chekish, o‘g‘rilik qilish, jinoyatchilik, giyohvandlik va boshqalar), ruhiy tanglik holatlariga moyillik kuchli bo‘ladi.

Er-xotin, qaynona-kelin o‘rtasidagi ziddiyatlar va tushunmovchiliklar, og‘ir iqtisodiy sharoit va hayotga yengiltaklik bilan yondashish kabi illatlar oila buzilishiga sabab bo‘ladi. Bundan tashqari, ishsizlik, moddiy qiyinchilik, ruhiy tushkunlikka tushish, uy-joy muammosi, o‘zlari va farzandlarining turli oqimlarga kirib qolishi va hokazolar oilaviy ajrimning sabablaridan biridir.

Xalqaro tashkilotlar, xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan har yili ajralishlarning global koeffitsiyenti berib boriladi. Mazkur ma’lumotlarga ko‘ra, nikohdan ajrashish statistikasi bir qator ta’sirchan omillar tufayli keskin o‘zgarib borganini ko‘rishimiz mumkin. Dunyo bo‘yicha ajrashishga juftliklarning o‘zaro mos kelmasligi, xiyonat, giyohvandlikka ruju qo‘yish, spirtli ichimliklar iste’mol qilish, moddiy yetishmovchilik hamda jismoniy, ruhiy zo‘ravonlik katta ta’sir o‘tkazadi[4].

O‘zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda O‘zbekistonda keltirilayotgan raqamlarni o‘tgan yilgisi bilan taqqoslaganda oilaviy ajrimlar soni 24 foizga oshgan. Masalan, 2021-yilda jami 39 227 ta oila nikohi bekor qilingan bo‘lsa, 2022-yilda ularning soni 48 734 tani tashkil etgan[5].

Hozirgi kunda O‘zbekistonda oilaviy ajrim dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda. Ajrashishlarning sabablari o‘rganilib, yoshi katta onaxonlar, mahalla faollari muammolarni hal etish yo‘llarini izlashlari lozim. Chunki Islom dinida har bir buzilgan nikoh uchun arshi a‘lo larzaga kelishi alohida ta’kidlab o‘tilgan. Oiladagi bolalarning tirik yetim bo‘lib qolishi, jamiyatda tirik yetimlar sonining oshishi taraqqiyotga salbiy ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Yana alohida ta’kidlash lozimki, farzandini har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda ota-ona zimmasiga juda katta mas’uliyat yuklatilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasida “Ota-onalar o‘z farzandlarini voyaga yetguniga qadar boqishi, ularning tarbiyasi, ta’lim olishi, sog‘lom, to‘laqonli va har tomonlama kamol topishi xususida g‘amxo‘rlik qilishga majburdirlar”, deb ta’kidlangan.

Arzimagan vajlar tufayli oilani barbod qilish, albatta, bolalar tarbiyasiga salbiy ta’sir etadi. “Bolaning uvoli tutadi” degan gaplar ham o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan,

albatta. Afsuski, uvol-savobni bilmaydigan, norasidalarining yetim qolishini o'ylamaydigan ota-onalar ham oramizda yo'q emas.

Shu o'rinda hayotiy tajribadan misol keltirsak: Oila ajrim yoqasiga kelib qolgani sababli mahallada muhokama qilindi. Sababi esa oddiy – qaynona-kelin mojarosi. Birinchi marta suhbat mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, tuman mutaxassisi, profilaktika inspektori, imom-xatib va otinoyilar ishtirokida har ikkala tomonning ota-onasi bilan uzoq davom etgan suhbat ham hech qanday natija bermadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan mutaxassislardan tarkib topgan "Oilaviy qadriyatlar komissiya"si a'zolarining tinimsiz mehnati o'z samarasini bermasdan qolmadi. Natijada qaynona-kelin muammosi bartaraf etildi, oila ajralish fikridan qaytdi. Hozirgi kunda ushbu oila tinch-totuv yashab kelmoqda.

Ikkinchi misol: Er chet mamlakatda ishlab kelgan va hozirgi kunda shar'iy nikoh asosida boshqa ayol bilan yashaydi, "Oila qadriyatlarini mustahkamlash" komissiyasi a'zolari oilada 4 nafar voyaga yetmagan farzandi borligi sababli ularni yarashtirish uchun 3 oy davomida harakat qilib ko'rishdi. Olib borilgan tushuntirish ishlari natijasida erkakning chet elda uylanib olgan boshqa xotini borligi, birinchi xotini bilan yarashishni umuman istamasligi aniqlandi. Shu yerda haqli savol tug'iladi: er-xotinning yoshi katta, tajribaga ega bo'lgan keksa ota-onalari nega bu oilani saqlab qolishga harakat qilishmadi?

Yana shunday holatlar borki, hozirgi kunda ba'zi ayollarimiz hali qonuniy ajrashmasdan turib, voyaga yetmagan farzandlarining kelajagini o'ylamasdan, sabr nimaligini bilmasdan, qayerda xato qildim ekan demasdan, shar'iy nikoh asosida boshqa fuqaro bilan turmush qurib, homilador bo'lmoqdalar. Bu ham ularning sabrsizligi, uzoqni o'ylamasligi hamda nikohning mas'uliyatini chuqur anglamasligidan dalolat beradi.

Bo'yi yetgan qiz maktabni tugatishi bilan turmushga berilgan. Uning na ilmi va na hunari bo'lgan. Kelin bo'lib tushgan xonadonida uy yumushlarini bajarishdan boshqa ishi qolmagan. Qaynona va qaynsingilning ruhiy zo'ravonligi, bolalarining unga nisbatan salbiy munosabati mazkur oilada doimiy ravishda janjallarining kelib chiqishiga sabab bo'lgan. Mahalladagi "Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash" komissiya a'zolari hamda Reabilitatsiya markazidagi psixolog hamkorligidagi sa'y-harakatlar bilan munosabatlar birmuncha yaxshilandi. Eng asosiysi, kelinchakka hunar o'rganishiga imkoniyat yaratildi. Natijada kelin ishga joylashdi va uning oiladagi mavqeyi birmuncha mustahkamlandi. Qaynona ham endi keliniga bekorchi deb emas, balki oilaning teng huquqli a'zosi sifatida qaray boshladi.

Shu o'rinda mahalla oilaning eng yaqin maslahatchisi, tog'day tayanchi ekanligini aytib o'tmoqchimiz. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Mahalla – tinchlik va osoyishtalik poydevori, ahillik va hamjihatlik, ma'rifat va tarbiya qo'rg'onidir". Oilaviy ajrimlarning oldini olish borasida hukumat tomonidan barcha

qonunlar qabul qilinmoqda va tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bundan kelib chiqadiki, mahallada ajrim yoqasiga kelib qolgan har bir oila bilan alohida ish olib borishni amalga tatbiq etish zarur:

1. Mahalla qoshidagi “Oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash” komissiyasi a’zolari, Oqila ayollar yetakchisi, Nuroniylar, Yoshlar ishlari agentligi bilan hamkorlikda har bir ajrim yoqasiga kelib qolgan oila a’zolariga komissiya a’zolarini biriktirish va ular bilan muntazam ravishda ish olib borish.

2. Aholining, birinchi navbatda, huquqiy va diniy savodxonligini oshirish, fuqarolarga har bir oila davlat muhofazasida ekanligini amalda his qildirish uchun prokuratura, adliya, sud va IIB tizimi xodimlari bilan seminar-treninglar va uchrashuvlar o’tkazishni tashkil qilish va amalga oshirish kerak.

3. Har bir ajrim yoqasiga kelib qolgan oilaning bu kabi noxush holatga kelib qolishining sabablarini o’rgangan holda ish tutish lozim. Sabab moddiy qiyinchilik (ishsizlik) bo’lsa, mahalladagi hokim yordamchisi ko‘magida fuqaroning mutaxassisligi bo‘yicha, agar mutaxassisligi bo‘lmasa, xohish-irodasi bilan hunar o‘rganishi va ishga joylashishiga ko‘maklashish zarur. Agar oilaning bir nafar a’zosi ishga joylashsa, oilada, birinchidan, tinchlik-xotirjamlik, moddiy farovonlik paydo bo‘ladi. Oilaning ikkinchi a’zosi ishga joylashsa, bu oilada orzu-havas uchun imkoniyat yaratiladi, degan fikrlarni fuqarolarga tushuntirish lozim.

4. Moddiy ta’minlangandagina oilada ma’naviy va ta’lim-tarbiyaviy ishlarda yuksalish boshlanadi. Shu jumladan, farzandlarini sport, musiqa va boshqa yo‘nalishlarga yo‘naltirish imkoni bo‘ladi. Ajrim yoqasiga kelib qolgan yoki ajralgan oiladagi farzandlarni Yoshlar ishlari agentligi orqali har tomonlama barkamol avlod bo‘lib yetishishlari uchun o‘quv kurslariga, sport, musiqa, chet tili kurslariga, shuningdek, turli tadbirlarga jalb etilishi farzandlarning irodasini mustahkamlashda va ularning hayotda o‘z o‘rnini topishida amaliy yordam bo‘ladi.

5. Oiladagi ota yoki onaning ichkilikka berilishi (giyohvandlik) hollarida (fuqaro bilan kelishilgan holda) mahalla xotin-qizlar faoli murojaati orqali tibbiyot xodimi bilan hamkorlikda davolanish ishlari tashkillashtiriladi. Natijada oilada tinchlik-xotirjamlik tiklanadi va farzandlarning har tomonlama yetuk inson bo‘lib yetishish imkoniyati oshadi.

6. Mahalladagi ajrim yoqasiga kelib qolgan oilalar bilan mahalla xotin-qizlar faoli, imom-xatib va otinoyilar, IIB xodimlari, prokuratura, adliya organi vakillari boshchiligida turli tadbirlar o‘tkazilib, “Oila a’zolarining huquqiy bilimini oshirish – oila barqarorligini ta’minlash omili” mavzusida davra suhbatlari tashkil etish, ushbu suhbatlarda namunali oilalar vakillari o‘z hayotiy tajribalarini o‘rtoqlashishlari maqsadga muvofiqdir.

Xulosa. Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

Oilaviy ajrimlarning oldini olish uchun quyidagi qoidalarga rioya qilish lozim deb hisoblaymiz:

- er va xotin oila mustahkam bo'lishi uchun bir-birini yaxshi tushunishi;
- er va xotin bir-birlarining odatlarini, nimadan xafa va nimadan xursand bo'lishlarini bilishlari va imkon darajada xatolarga yo'l qo'ymasligi;
- er va xotin bir-birlarining ruhiy kechinmalarida va kayfiyatlarida bo'ladigan o'zgarishlarni yaxshi tushunib yetishlari;
- oilada bir-birini xafa qiladigan harakatlardan yiroq bo'lib, xursand qiladigan narsalarga yaqin bo'lishga harakat qilishlari;
- farzandlarini har tomonlama yetuk inson bo'lib ulg'ayishiga, ularning tarbiyasiga er-xotin hamkorlikda kelishgan holda katta e'tibor qaratishi lozim. Chunki ota-ona oltin qanotdir. Tarbiya qancha mukammal bo'lsa, xalq shunchalik baxtli yashaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har birimiz o'z ishimizga mas'ul bo'lib, oilaviy ajrim yoqasidagi oilalarni barvaqt aniqlasak va ularga, ularning farzandlariga manzilli yordamni o'z vaqtida ko'rsata olsak, ko'p oilaviy ajrimlarning oldini olgan bo'lamiz. Sog'lom va mustahkam oila – sog'lom kelajak poydevori. Oilada sog'lom ma'naviy muhit, oila a'zolarida o'zaro hurmat-ehtirom ruhini yaratish, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarimizni saqlab qolish, kelajak avlodlarimiz ongiga sog'lom turmush tarzini singdirish asosiy vazifamiz ekanligini yoddan chiqarmasligimiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ахлоқ-одобга оид ҳадис намуналари. – Тошкент: Фан, 1990.
2. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Тошкент, 2023.
3. Мадиева Р. Oilalarni saqlab qolishga har birimiz mas'ulmiz. Internet ma'lumoti // <https:// yuz.uz/news/> ижтимоий ҳаёт (17.01. 2022).
4. Статистика агентлиги хабарлари. Интернет маълумотлари // <https://stat.uz/20.05.2023>.
5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2022 йил 20 декабрдаги Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига мурожаати. Интернет маълумоти: <https://www.xabar.uz/>.